# SHASHMAQOM SAN'ATINING MANG'IT HUKMDORLARI DAVRIDAGI TARAQQIYOTI

***Radjabova Nodira Mexmonovna.***
*BuxDU tarix fanlari bo'yicha*
*falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya :*** *Ushbu tezisda Buxoro musiqa san'atining tarraqiyot jarayonlarida vujudga kelgan Buxoro Shashmaqomining mukammalashib borishi, Mang'it sulolasiga mansub bo'lgan hukmdorlar davrida Shashmaqomga bo'lgan e'tibor , saroy san'atkorlarining moddiy va ma'naviy rag'batlantirilib borishirilishi ,san'atni rag'batlantirish jarayonidagi mang'it Amirlarining ibratli ishlari, maqomxon ustozlar faoliyati haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Shashmaqom, Buxorcha, Mavrigi, Rikob, Truppa, Rusiya, xofizu-mutrib, qushbegi, bolobomchilar,jivachi, mirohxo'r, qorovulbegi, rotifa.*

Buxoro musiqa san'atining taraqqiyot jarayoniga nazar solar ekanmiz, unda boshqa madaniy sivilizatsiyaga erishgan shaharlar musiqiy an'analaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan manzarani ko'rishimiz mumkin. Buxoro folklor va mumtoz kuy-qo'shiqlardan iborat bo'lgan musiqasini uch asosiy yo'nalishida o'rganish taqozo etiladi. Bular: Sharq an'anaviy ijrochiligining mukammal namunalarini o'zida aks ettirgan kuy va ashulalardan tarkib topgan "Shashmaqom", faqat Buxorogagina xos bo'lgan ashula va raqslardan iborat "Buxorcha" turkumi va oxirgi asrlar davomida vujudga kelgan "Mavrigi" taronalaridir.

Shashmaqomning tarkib topishi va shakllanishida O'rta Osiyo hududida istiqomat qilgan xalqlar musiqa boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan Buxoro yetakchi rol o'ynagan, shuningdek, aynan Buxoroda yashab o'zbek, tojik, yahudiy va boshqa millat vakillari bunda katta fidoiylik namunasini ko'rsatganlar. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, professor I.Rajabov aytganidek, kuy va ashula yo'nalishlarida o'zbek va tojik xalq musiqasiga xos intonasiya(tallafuz), lad tuzulishi, metodik shakl, ritmik asos (usullar) mujassamlashgan Shashmaqomning Buxoroda shakllanib, "Buxoro Shashmaqomi" nomi bilan atalib kelinayotganligi ayni haqiqatdir.

Mumtoz musiqamizning nafis gultoji bo'lgan Buxoro Shashmaqomi XVIII asrning birinchi yarmida shakllanib deyarli to'rt asr davomida (Bunda maqomlarning faqat "Shashmaqom" nomiga ega bo'lgan davri nazarda tutiladi ) o'zbek va tojik xalqlarning ma'naviy-musiqiy mulki sifatida yashab kelmoqda.

Ma'lumki, maqom musiqasi aslida xalq kuy-qo'shiqlari asosida paydo bo'lgan bo'lsa-da, u saroy an'analari muhitida shakllanib, takomillashgan profissional ahamiyatga molik musiqiy majmuadir. Uning saroy homiyligisiz, mamlakat

hukmdorlarining e'tiborisiz rivojlanishi va tarraqiy etishi juda mushkul edi. Zero, san'at va san'atkor o'zida hamisha homiylikka ehtiyoj sezib kelgan. Bu borada, xususan, davlat hukmdorlarining san'atsevarligi va ularning san'at ahliga bo'lgan e'tibori ayricha ahamiyat kasb etgan. Buxoro Shashmaqomi musiqiy merosimizning eng nodir gavhari sifatida jahon musiqiy maydonida e'tirof etilishida Buxoro taxtini uzoq muddat boshqargan amiru amirzodalarning fazlu marhamati cheksiz bo'lgan.

Buxoro mang'it amirlari sulolasining so'nggi vakillari Amir Muzaffarxon, Amir Ahadxon va Amir Olimxonlar o'z davrining ilmli, idrokli kishilari bo'lib, she'riyat va so'z san'atiga juda ixlosmand bo'lganlar. Buxoro amirlari saroyida san'at va she'riyat ahli uchun maxsus uyushma **Rikob**[1] tashkil etilgan . Rikob so'zi aslida o'zanki ma'nosini berib, bu yerda majoziy, podshoh xuzuri ma'nosida ishlatilgan.Unda Buxoroning mashhur mutribu mug'anniylari, moqomxon hofizlari, noxun tilla sozandalar, xushnafas she'riyat darg'alari, shoiru shuarolar jalb etilgan.

Buxoro mang'it amirlarining vakili Muzaffarxonning musiqa san'ati va musiqa ahliga e'tiqodi baland bo'lib, u o'z saroyida maqomxonlik va she'riyat kechalarini uyushtirib, musiqa hamda she'riyatdan ma'naviy zavq olib, maroqli dam olgan va saroy san'atkorlarini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirib turgan.

Musiqashunos Otanazar Matyoqubov o'zining "Maqomat" kitobida Amir Muzaffarxon, Amir Abdullahadxon va Amir Olimxonlarning sozparvarligi va ularning musiqa san'atiga ixlosi baland bo'lganligini ta'kidlab, Amir Muzaffarxoning malakali maqomxon xofiz va sozandalar tayyorlash maqsadida Buxoroda maxsus Shashmaqom maktabini tashkil etganligini aytib o'tadi[2].

Amir Muzaffarxonning farzandi Abdulahadxon esa, o'z zamonasining zukko shoiri bo'lib, "Ojiz" taxallusi bilan she'riy devonlar tuzgan. Maqomshunos olim Ishoq Rajabov o'zining "Maqomlar" kitobida "Ojiz" taxallusi bilan ijod qilgan Sayid Amir Abdulahadxon o'z davrining olimi, fozili va e'tiborli shoir edi deb ta'kidlaydi. Undan talaygina jozibali she'r va g'azallar meros bo'lib qoldi. Uning ko'pgina g'azallarini o'sha davrning mashhur maqomxon hofizlar kuyga solib xalq yo'lida kuylaganlar.[3]

Amir Abdulahadxon nafaqat she'riyat,balki musiqa san'atining ham katta muxlisi bo'lgan. U maqom hofizlari Ota Jalol, Ota G'iyos, Hoji Abdurahmonbek, Mirza Abdukarim Tanburiy bilan hamnishinlik qilib, tanburda Shashmaqom mushkilotlaridan ma'lum parchalarni tuzukkina chalishni o'rganib olgan edi. Bu xususda uning zamondoshi, shoir Muhammadalixon quyidagilarni aytgan edi: "Амир Абдулаҳадхон табъи шоири дошта бо тахаллуси Ожиз шеър мегуфтб ў ба мусиқйб алалхусус ба санъати қадимаи "Шашмақом" тавважуҳ доштаб худ низ

[1] P.Shamsiyev va S. Ibrohimov tomonidan tuzilgan " Navoiy asarlari lug'ati"da "Rikob" so'zi –o'zangi, majoziy ma'noda "podshoh xuzuri" manolari berilgan. –T., 1972. 527-bet.
[2] O.Matyoqubov.Maqomot.Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2014. 58-bet.
[3] I.Rajabov. Maqomlar. Toshkent.: "San'at" nashriyoti, 2006.

танбур менавохт ”. (Amir Abdullahadxon shoirona ta’b sohibi bo’lib, Ojiz taxallusi bilan she’rlar bitar edi. Uning musiqa ilmi, xususan, Shashmaqom taronalariga muhabbati balnd, o’zi ham yaxshigina tanburnavoz edi ).

Amir ancha tarraqiyparvar inson bo’lgani uchun o’z hukumronligining dastlabki yillarida mamlakatda turli sohalar bo’yicha islohotlar o’tkazishga harakat qilgan. Abdulahadxon 1883 yilda Aleksandr III ning taxtga o’tirishi munosabati bilan o’tkazilgan tantanada ishtirok etish uchun Moskvaga boradi. U yerdagi yangiliklarni ko’rib, temir yo’l, telegraf, shifoxona va boshqa inshootlarni qurish xususida tajriba orttirib qaytadi. Oqibatda, Rusiya mutaxassislari hamkorligida Buxoroda bir qator ma’muriy-ma’rifiy binolarni barpo etishga erishadi. Mazkur binolardan viloyat kasalxonasi, Buxoro shahar san’at muzeyi, Labi Hovuzdagi xalq banki, vokzal hududidagi, shuningdek, Kogon shahriga kiraverishdagi rus xristianlari cherkovi sifatida bugungi kunda foydalanib kelinmoqda.

Buxoroning so’nggi Amiri Sayid Olimxon mang’itlar sulolasining yettinchi hukmdori bo’lib, uning boboyu bobokalonlari: Amir Sayid Abdulahadxon, Amir Muzaffarxon, Amir Sayid Nasrulloxon, Amir Haydarxon, Amir Shohmurodxon **(G’oziy)** va Amir Doniyolxondir.

Amir Sayid Olimxon 1881 yilda Karmanada tug’ilib, 13 yoshida (1893 y.) madrasa xatmidan so’ng, saltanat va mamlakatni idora qilish qoidalarini o’rganish uchun Peterburgga yuboriladi.

Otasi Abdullahadxon vafotidan so’ng, 1910 yil 4 dekabr, juma kuni Sayid Olimxon sulola an’anasiga ko’ra, Arkdagi ko’rinishxonada barcha amaldorlar ishtirokida oq kigizga o’tqazilib, amirlik taxtiga ko’tariladi.[2]

Mang’it amirlari davrida Buxoroda ilm-fan, madaniyat va san’at, me’morchilik, xattotlik, hunarmandchilikning rivojlanishida sulola vakillarlarining ibratli ishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Sayid Olimxon ota-bobolari singari soz san’atiga, hofizu mutriblarning iste’dod va qobilyatlariga befarq bo’lmagan. U o’tmish ajdodlari kabi o’z saroyida maqomxon ustozlarni to’plab, Shashmaqomni mukammalashtirish va uni asrab-avaylab, keying avlod vakillariga yetkazishga alohida e’tibor bergan.

Tarixiy manbalarda ko’rsatilishicha, mang’itlar sulolasining keying uch amiri: Amir Muzaffarxon, Amir Abdullahadxon, Amir Sayid Olimxonlar davrida saroy rikobida quyidagi san’atkorlar faoliyat ko’rsatganlar: Tillaboy hofiz,Usta Islimxon, Ota Jalol, Hoji Abdurahmon, Usta Homid Savtxon, Ota G’iyos, Levicha Hofiz (Levi Boboxonov), Qori Karomatulloi Dilkash, Qori Najm, Abdusamad Begijon, Mirza Abdukarim Tanburiy, Usta Jalol G’olib Dafiy, Qori Kamol, Usta Shodi, Yusufi Gurg, Usta Qurbon, Turob Qorovulbegi kabi qirqqa yaqin maqomdon sozandayu xonandalar amir rikobida xizmat qilganlar.

Buxoro Amiri, saroyidagi maqomxon ustozlar haqida 1878-1879 yillarda Afg'oniston va Buxoro amirligi bo'ylab safarda bo'lgan rus elchisi I.L.Yavorskiy quyidagilarni yozgan edi: Buxoro amirining Arkida zamonasining atoqli san'atkorlaridan tashkil topgan bir necha mustaqil to'p ansambllar ibratli va yetakchi bo'lgan. Shulardan biri maqomchilar ansambli bo'lib, unda Shashmaqomning O'rta Osiyoda dong'i ketgan atoqli ustozlari uyushgan edi".

Saroy hofizlariga Shashmaqomni istagan joyda, saroy tashqarisidagi to'y-hashamlar, shuningdek, turli oilaviy marosimlarda ijro etish man etilgan. Taniqli maqomshunos olim O.Matyoqubov "Amir Olimxon maqom an'analarini muqaddas bilib, uni saroy hofizlari har qanday joyda ijro etib, mo'tabar san'atning poymol etilishiga yo'l qo'ymagan. Shunga binoan saroy san'atkorlarining faoliyati qat'iy nazorat ostida bo'lganligini o'zining "Maqomot" nomli kitobida, qayt etib o'tadi.[2] Shuningdek, Yoqub Xaimovning " Levicha Hofiz" asarida esa saroy hofizlari hatto tutqunlikda saqlangan deb yozadi.[3] Shu bilan birga, ba'zi manbalarda yozilishicha va keksa ustozlarning hikoya qilishicha, rikobiy sozandalar Amir va Qushbegi ruxsati bilan "Navro'z ", "Sayli guli surx" bayramlari va Hayit kunlaridagi ommaviy sayllarga ishtirok etib o'z san'atkorlaridan oddiy xalqni bahramand etganlar.[4] Gap shundaki, yuqorida aytib o'tilgan umumxalq bayramlari Buxoroda katta tayyorgarlik va tantana bilan o'tkazilgan. Bunday xalq sayllari asosan tasavvuf olamining yalovbardori Bahovuddin Naqshband, xassos shoiri, "Ibrohim ibn Adham" dostonining muallifi Xo'ja Ismat Buxoriy ziyoratgohi tevaragi, shuningdek, shahar atrofidagi Dilkusho, Fayzobod, va Shirbadan kabi xushmanzara bog'larda o'tkazilgan.

Sharq she'riyatining chuqur bilimdoni, domla G'ulomjon Izomiyning hikoya qilishicha, hamal oyining o'rtalarida xalq sayllari bo'lib o'tadigan maskanlarda chodirlar tikilib, 30 ga yaqin doshqozonlarda sumalak, buxorocha sofi osh, balaza no'xat, sho'rva singari xushxo'r taomlar tayyorlanib, uch-yetti kun davomida xalqqa tekin ziyofat berilgan, ushbu ziyofatlar amir hisobidan tashkil etgan.

Mazkur sayllarda Buxoro ahlining maroqli dam olishi uchun hunarmandlar, amaliy san'at vakillari o'z hunarlarini namoyish etganlar. Xalq sayli yanada jozibali o'tishi uchun qo'chqor urushtirish, xo'roz urushtirish, kurashga tushish, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik va masxarabozlik kabi milliy o'yinlarga o'rin berilgan. Amir o'zining saroy hofizlari va xalq orasida nom chiqargan san'atkorlar o'rtasida maqomxonlik ko'rik-tanlovlarini ham shu marosim jarayonida o'tkazgan. Mahoratli ijrochilarning san'atini baholash uchun Ota Jalol boshliq bir guruh maqomxon ustozlar hakamlik qilganlar. Ko'p hollarda san'atkorlar chiqishini baholashda amirning o'zi ham ishtirok etgan va g'olib san'atkorga zardo'zi va banoras matolaridan tikilgan choponlar kiygizgan. Shu bilan birga, aksariyat hollarda g'olib ijrochiga tilla buyum yoki biror cholg'u asbobi hadiya etilgan.

Keksa san'atkorlarning ma'lumotiga ko'ra, amir saroyidagi barcha badiiy truppalarda yuzdan ortiq nomdor san'atkorlar xizmat qilganlar. Bundan tashqari Buxoro amiri tasarrufida XIX asrda piyoda sarbozlardan tarkib topgan xarbiy musiqachilar guruhi tashkil etilib, unga "Bolobomchilar" deb nom berilgan.[2]

Buxoro amirlari xususan, Shashmaqom ustozlariga katta ehtirom ko'rsatganlar. Ularga tilla buyumlar tuhfa qilish bilan birga, zarbof choponlar kiygizib, "jevachi", "mirroxo'r", "qorovulbegi" singari unvonlar bilan taqdirlab turganlar. Keksa Bobo Shodimurod Shamsovning aytishicha , saroy hofizlari boshlig'i oilalarining kundalik ehtiyoji ham amir hisobidan bo'lgan. Oila a'zolarining soniga qarab har kuni ertalab nonushtaga-balaza no'xat, qaymoq, turli xil holva va aynan shunday mazali taomlar maxsus tayinlangan xizmatkor orqali saroydan yuborilgan. Bunday udum "Rotifa" deb atalgan.

Maqomxon hofizlarga o'z uylariga tunashga ham ruxsat berilgan. Saroy hofizlarining aksariyati shaharning Eshoni Pir, G'oziyon va Gavkushon guzarlarida istiqomat qilganlar. Amirlar san'at ahliga e'tiborli bo'lishni o'z farzandlariga ham vasiyat qilib ketganlar. Jumladan, Amir Abdulahadxon vafotidan ilgari o'g'li Olimxonni o'z huzuriga chaqirib, -"O'g'lim, sen Shashmaqom Piri –Bobo Jalolga Hamisha e'tiborli bo'lgin, uning hurmatini joyiga qo'yib turgin, zero ustoz bizning sulolamizga juda halollik bilan uzoq yillar xizmat qilib keldi. U ulug' Shashmaqomni o'z umri davomida asrab-avaylab, uni takomillashtirish uchun katta jasorat ko'rsatgan iste'dod sohibi hisoblanadi ", - deb aytgan ekan. Shundan kelib chiqib, Amir Olimxon davlatni boshqarish jarayonida iste'dodli hunar egalariga otasi Amir Abdulahadxon aytganidek, e'tiborli va hurmatli bo'lishga harakat qilganligini ko'rish mumkin.

"Amir Olimxon, ta'kidlaganimizdek, ma'rifatli shaxs bo'lganligi tufayli mamlakatda san'at va madaniyat ishlariga ko'proq e'tibor berib, shahar obodonchiligi , maktab qurilishi va xususan, san'at rivoji uchun mablag'ni sira ayamagan. XX asrning boshida Buxoroda 33 ta oliy toifali, 39 ta o'rta toifali madrasa, 11 kutubxona faoliyat ko'rsatgan". [5] Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq davlatchiligimiz tarixini xolisona yoritish maqsadida matbuotimizda bir qator tahliliy maqolalar e'lon qilindi. Jumladan, Amir Olimxonning she'riyat va musiqa san'ati ixlosmandligi haqida uning katta o'g'li Sayid Umarxon bilan suxbat o'tkazilib, "Buxoro xaqiqati" gazetasining 1993 yil 19 oktyabr sonida yozuvchi Fayzulla Qilichov tomonidan e'lon qilingan maqolada quyidagi fikrlar keltirilgan: "Sayid Olimxon Mirzo Abdulqodir Bedilning g'azallarini yod bilgan ekanlar.

Uning yuzlab she'rlarini kuyga solib, o'zi dutor chalib kuylar ekan" . Boshqa bir maqolasida esa amir Olimxon qizillar bosqinidan so'ng 1921 yil, Afg'onistonga ketganda ham, maqom shinavandligi odatini tark etmagan. U Hazratqul, Hoji Ismoil va Elmurod ismli bir qator maqomxon hofizlarni o'zi bilan olib ketib, maqomxonlik darslarini Afg'onistonda ham davom ettirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda jahonda o'z mavqe va nufuziga ega bo'lgan musiqiy qomusimiz Buxoro Shashmaqomining bizning davrgacha yetib kelishida mang'it amirlarining xizmatlari beqiyos bo'lgan. Ulaning maqomxon ustozlarga bo'lgan hurmat va e'tibori tufayli o'sha davrda nota yozuvi bo'lmagan tarzda, ustoz va shogirdlik an'anasi sharoitida Shashmaqom to'la shaklda XX asr avlodlariga butunligicha yetib keldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. P.Shamsiyev va S. Ibrohimov tomonidan tuzilgan " Navoiy asarlari lug'ati"da "–T., 1972. 527-bet.
2. O.Matyoqubov.Maqomot.Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2014. 58-bet.
3. I.Rajabov. Maqomlar. Toshkent.: "San'at" nashriyoti, 2006.
4. · N.Naimov. Amirning zuriyoddi. "Buxoro"nashriyoti, 1995.34-bet.
5. Mazkur dalillar Askarali Rajab muharrirligida nashr etilgan "Donishmai Shashmaqom". Dushanbe. 2009.
6. И.Л.Яворский. Путишествие русского посолъство по Афганистану и Бухарскому ханству. В 1878-
7. 1879гг.Т.1-2, СПБ, 1982 годю Стр.911.
8. O.Matyoqubov. Maqomot. Toshkent. "Musiqa" nashriyoti, 2004. 57-bet.
9. Y.Xaimov. Levicha Xofiz. Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi" nashriyoti, 1975.48-bet.
10. F.To'rayev.Mutribod qalbdan uchgan navolar. Toshkent,2018.19-23bet.
11. N. Naimov. Fitrat fojeasi. Toshkent: "Fan"nashriyoti, 2005. 13-bet.
12. Rajabboy Otaturk. "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1994 yil 11 iyun.